

RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLAR AXLOQIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNINING FALSAFIY TAHLILI

*Navoiy davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası,
Ijtimoiy falsafa yo'nalishining Tayanch doktoranti (PhD)
O'ktamova Dilfuza O'ktamovna.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning axloqiy qiyofasi shakllanishi masalasi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi yoshlar ongida axloqiy, ijtimoiy va madaniy me'yorlarning qayta shakllanishiga sabab bo'layotgani yoritilgan. Tadqiqotda Z. Bauman, M. Kastels, E. Giddens, H. Jonas, A. Toffler, P. Bourdieu kabi olimlarning nazariy qarashlari asos qilib olingan. Shuningdek, kiberbulling, feyk axborot, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolari ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganilgan. So'rovnomalar, kuzatuv va statistik tahlillar asosida yoshlarning axloqiy qiyofasiga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan. Maqolada raqamli savodxonlikni oshirish, axloqiy kodekslarni joriy etish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va davlat siyosatini kuchaytirish orqali yoshlarning raqamli muhitdagi axloqiy barqarorligini ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Raqamli jamiyat, yoshlar, axloqiy qiyofa, raqamli savodxonlik, kiberbulling, feyk axborot, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internet, ijtimoiy tarmoqlar, axloqiy kodeks.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема формирования нравственного облика молодежи в условиях цифрового общества. Показано, что широкое распространение цифровых технологий и интернета приводит к трансформации нравственных, социальных и культурных норм в сознании молодежи. В исследовании использованы теоретические подходы таких ученых, как З. Бауман, М. Кастельс, Э. Гидденс, Х. Йонас, А. Тоффлер, П. Бурдьё. Кроме того, с научной и социальной точек зрения рассматриваются такие проблемы, как кибербуллинг, фейковая информация, информационная безопасность и защита персональных данных. На основе опросов, наблюдений и статистического анализа выявлены факторы, влияющие на нравственный облик молодежи. В статье подчеркивается необходимость обеспечения нравственной устойчивости молодежи в цифровой среде путем повышения цифровой грамотности, внедрения нравственных кодексов, защиты персональных данных и усиления государственной политики.

Ключевые слова: Цифровое общество, молодежь, нравственный облик, цифровая грамотность, кибербуллинг, фейковая информация, информационная

безопасность, защита персональных данных, интернет, социальные сети, нравственный кодекс.

Annotation: This article analyzes the issue of shaping the moral image of youth in the context of the digital society. It highlights how the widespread use of digital technologies and the internet leads to the transformation of moral, social, and cultural norms in young people's consciousness. The study is based on the theoretical perspectives of scholars such as Z. Bauman, M. Castells, A. Giddens, H. Jonas, A. Toffler, and P. Bourdieu. Furthermore, issues such as cyberbullying, fake information, information security, and the protection of personal data are examined from both scientific and social perspectives. Based on surveys, observations, and statistical analysis, the factors influencing the moral image of youth are revealed. The article emphasizes the need to ensure the moral stability of young people in the digital environment by improving digital literacy, introducing ethical codes, protecting personal data, and strengthening state policy.

Keywords: Digital society, youth, moral image, digital literacy, cyberbullying, fake information, information security, protection of personal data, internet, social networks, ethical code.

Kirish

Bugungi kunda Raqamli jamiyat inson hayotining bir bo'lagiga alloqachon aylanib ulgurdi va barcha sohalarda, yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish borasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamli Texnologiyalarning global darajada rivojlanishi, ayniqsa internetning keng tarqalishi sababli yoshlar o'rtasida muloqot, madaniyat, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me'yorlar sezilarli darajada qayta shakllanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, internet va zamonaviy raqamli texnologiyalar foydalanuvchilari yoshlar orasida yangi axloqiy va ijtimoiy tamoyillarni belgilamoqda. Bu jarayon albatta yoshlarni shaxsiy hayotga bo'lgan daxldorlik, axborot xavfsizligiga bo'lgan immunitet, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi bir qator masalalarni o'z faoliyat jarayoniga qo'ydi. Bugungi raqamli jamiyatda axloqiy masalalar va muammolarning ko'payishi yangi axloqiy prinsiplar va qarashlarni joriy qilishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, kiberbulling, internetdagi tajavvuzlar va firibgarlik, feyk axborotlar tarqatilishi kabi ko'plab muammolar axloqiy va huquqiy jihatdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlik kabi masalalar jamiyatning barcha jabhalari uchun dolzarb va global darajadagi muammo sifatida jiddiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Tahlil va muhokama

Raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda faqatgina yoshlar o'rtasidagi munosabatlar va muloqot me'yorlarini aniqlash bilan emas, balki raqamli hayotning barcha

tarmoqlarida ustuvor me'yorlar orqali shakllantirish juda muhim sanaladi. Axloqiy qiyofaning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta'minlash, ularni milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlikda barqarorligiga erishish hamda jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun muhim ilmiy va ijtimoiy asoslarni yaratish lozim.

Zigmunt Bauman "Liquid Modernity" ("Suyuq modernlik", 2000) asarida zamonaviy jamiyatda qadriyatlar va axloqiy mezonlar beqaror, tez o'zgaruvchan deya qarab, "suyuq jamiyat" tushunchasini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, yoshlar raqamli davrda tez o'zgaruvchan axborot oqimi ta'sirida mustahkam axloqiy pozitsiyani yo'qotmasligi kerak.

Manuel Kastels "The Information Age: Economy, Society and Culture" (3 jildlik, 1996–1998) Axborot jamiyati nazariyasiga asoslanadi. Kastels internetni global "tarmoqlar jamiyati" sifatida tushuntiradi.

Uning fikricha, yoshlar axloqiy qiyofasi raqamli tarmoqlardagi ijtimoiy aloqalar, virtual hamjamiyatlar va global axborot oqimi orqali shakllanadi.

Entoni Giddens "Modernity and Self-Identity" ("Zamonaviylik va shaxsiy o'zlik", 1991) asarida "refleksiv zamonaviylik" tushunchasini ishlab chiqqan. Inson o'z hayotini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadi va yangidan quradi deya takidlagan.

Giddensning fikriga ko'ra yoshlar raqamli muhitda o'z "axloqiy qiyofasini" doimiy ravishda qayta shakllantiradi – bu esa ijobiy ham, xavfli ham bo'lishi mumkin.

Hans Jonas "The Imperative of Responsibility" ("Mas'uliyat imperativi", 1979). Jonas nazariyasiga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar sharoitida axloqiy mas'uliyatni alohida ta'kidlaydi. Uningcha: "Bizning harakatlarimiz kelajak avlodlarga zarar yetkazmasligi kerak."

Raqamli jamiyatda yoshlar texnologiyadan foydalanganda ekologik, ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatni ham o'ylashi kerak.

Alvin Toffler "Future Shock" ("Kelajak zarbasi", 1970) asarida Toffler texnologiya va raqamli o'zgarishlarning inson ongiga kuchli ta'sirini tahlil qilgan.

Uning fikriga ko'ra, yoshlar tezkor texnologik o'zgarishlarga axloqiy jihatdan tayyor bo'lishi, o'zini yo'qotmasligi zarur deya takidlagan.

Pyer Bourdieu "Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste" ("Farqlanish", 1979) asarida Bourdieu ijtimoiy maydon va madaniy kapital nazariyasini ishlab chiqqan.

Uning fikricha, raqamli jamiyatda yoshlar axloqiy qiyofasi internetdagi "ijtimoiy maydon" (ijtimoiy tarmoqlar, guruhlar) orqali shakllanadi; ular qanday kontent iste'mol qilsa, shunday "axloqiy kapital" hosil qiladi.

Ilmiy izlanishda nazariy tahlil, kuzatuv tahlili hamda murakkab tahlil usullari qo'llanildi. Bir qancha platformalarda raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Axloqiy muammolarni aniqlash uchun ijtimoiy medialar va internet foydalanuvchilarining fikrlari va tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va miqdoriy tadqiqotlar usullarini birlashtirib, turli- tuman ma'lumot manbaalarini qamrab oladi.

Axloqiy qiyofa tushunchasini raqamli jamiyat sharoitidagi evolyutsiyasini o'rganishda, falsafa, axloqshunoslik, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va ijtimoiy tarmoqlardagi ilmiy manbaalar va adabiyotlarga asoslandi. Bunda axloqiy qiyofani shakllantirishning raqamli muhitda o'zgarishiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilindi. Raqamli platforma va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy qiyofaning evolyutsiyasini o'rganishda Jon Roulz, Emmanuil Kant va Jon Styuart Mill kabi axloqshunos olimlarning asosiy g'oyalari, falsafiy fikrlari qayta ko'rib chiqildi va ularning raqamli muhitdagi qo'llanilishi baholandi.

Yoshlarning axloqiy qiyofani shakllantirishda raqamli jamiyatning o'rni va ahamiyati qanday? Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yosh foydalanuvchilarning munosabatini o'rganish maqsadida, so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda internet va raqamli platformalardan foydalanuvchilar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida axloqiy qadriyatlarning muhimligi, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetdagi axloq va etiket masalalari bo'yicha fikrlari to'plandi. 1000 nafarga yaqin foydalanuvchi qatnashgan ushbu so'rovnomalardan olingan natijalar statistik tahlil qilindi va raqamli jamiyatdagi turli tendensiyalar aniqlandi.

Raqamli jamiyatda ko'pchilik yoshlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi masalalari qanchalik muhim ekanligini e'tiboridan chetda qoldirmoqda. Aksariyat foydalanuvchilar yoshlar ekanligini inobatga olsak, ular shaxsiy ma'lumotlari, parollar va bank ma'lumotlarini xavfsiz saqlash borasida yetarli bilimga ega emas. Bundan tashqari, kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning yoyilishi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq boshqa muammolar shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi ishonchsizlikni kuchaytiradi. Raqamli tarmoqlarda yoshlar o'rtasidagi muloqotlar ko'p hollarda tajavvuzkor, nafrat va haqoratlarga to'la aylanadi. Bu vaziyat, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kiberbulling holatlarining ko'payishiga olib keladi. Buning asosiy sababi raqamli sovdaxonlikni yetishmasligi, anonimlik, javobgarlikni xis qilmaslik va foydalanuvchilarda axloqiy normalarni bilish va ularga rioya qilish darajasining pastligidir. Kiberbulling va onlayn agressiya raqamli jamiyatdagi eng jiddiy, o'ta dolzarb, axloqiy muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli tizimlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar o'rtasidagi muloqotlar ko'p hollarda agressiv va salbiy xatti-harakatlarga aylanadi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida kiberbulling holatlarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatlarida juda jiddiy bo'lishi mumkin, chunki

kiberbullingning qurbonlari ko'pincha psixologik travma oladi, o'ziga bo'lgan ishonchi pasayib, tushkunlikka tushib qoladi. Hatto stressga olib keluvchi holatlar ham kuzatilishi mumkin. Raqamli muhitda anonimlikni saqlash imkoniyati katta bo'lgani sabab foydalanuvchilar o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilmaydi. Anonimlik yoki qalbaki akkauntlar niqobi ostida bilib bilmay o'z fikrlarini oxirini o'ylamay erkin ifoda qilishi mumkin, bu esa ko'pincha agressiyaga, haqoratlarga, boshqalarning sha'niga tegadigan yoki zo'ravonlikka olib keladi.

Raqamli tizimlarda ijtimoiy normalar va axloqiy kodekslar deyarli darajada yetarli shakllanmagan bo'ladi. Dunyodagi har bir xalq va millatning qadriyatlari va madaniyatlari orasida axloqiy me'yorlar farqli bo'lgani uchun raqamli muhitdagi xatti-harakatlar ham har xil ko'rinishda bo'lishi tabiiy.

Ijtimoiy tarmoq va raqamli tizimlar tezlik bilan muloqotga kirishish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon yoshlarning his-tuyg'ularini tezda ifodalashiga olib keladi. Juda tez qaytarilgan munosabat va javoblar ko'pincha nazoratsiz qoladi, agressiyaga aylanishi xech gap emas. Bazi guruh va shaxslar ijtimoiy tarmoq va onlayn platformalarda foydalanuvchilarni muayyan g'oyalar yoki aqidalar orqali agressiv xatti-harakatlarga undaydi. Natijada turli xil g'ayri qarashlarga ega guruhlar o'rtasida nizo va kiberbulling holatlari yuzaga keladi.

Raqamli tizimlarda anonimlikni qisqartirish va yosh foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini tasdiqlash jarayonlarini kengaytirish orqali kiberbullingni kamaytirish mumkin. Buning natijasida foydalanuvchilar o'z xatti-harakatlari uchun javobgar bo'ladi va agressiv harakatlardan qochishga intiladi. Ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarda axloqiy kodekslar va xatti-harakat qoidalarini chegaralab aniq belgilab, joriy etish kerak. Bu kodekslar yosh foydalanuvchilarni odobli va madaniyatli muloqot qilishga undashi mumkin. Foydalanuvchilar bu qoidalarni buzgan taqdirda, tizim egalari tomonidan belgilangan jazo choralari ko'rilishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda avtomatlashtirilgan kontent filtrlari va tahlil vositalaridan foydalanish kerak. Bu vositalar kiberbulling, nafrat va agressiyani aniqlash va bunday kontentni to'xtatishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli fuqarolik, axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus darslar va treninglar tashkil qilinishi, yoshlar kiberbulling va uning salbiy oqibatlari haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishiga imkon beradi. Bu ularning onlayn muhitda muloqot qilish madaniyatini yaxshilashga yordam beradi.

Raqamli platformalarni nafaqat muloqot vositasi sifatida bilamiz balki, ma'rifat va ta'lim platformasi sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Lekin yanada ziyo ulashuvchi kuchlarini ishga slogan xolda rivojlantirish zarur. Yoshlarga ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan platformalar yaratish va uni keng ommaga targ'ib etilishi kerak. Bunday yordam foydalanuvchilarning psixologik holatini yaxshilashga

va ularga o'ziga ishonch tuyg'usini kuchaytirishga yordam beradi. Kiberbulling va onlayn agressiya muammolari raqamli jamiyatdagi eng muhim axloqiy va ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, ularning oldini olish uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. Axloqiy tarbiya, javobgarlikni oshirish, axloqiy kodekslar joriy etish va yordam mexanizmlarini tashkil etish orqali raqamli muhitda tinch va madaniyatli muloqot muhitini yaratish mumkin.

Bugungi kunda ko'plab yoshlarimizning axborot savodxonligida nuqsoni borligi tufayli turli xil foydasiz ammo zarari katta soxta axborotlar qurboniga aylanib qolmoqda. Albatta raqamli jamiyatda yolg'on ma'lumotlar va feyk yangiliklarning tarqalishi og'riqli muammolardan biri hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noto'g'ri ma'lumotlar jamiyat a'zolari tomonidan to'g'rimi yo'qmi tekshirilib, keyin xulosa qilinsa turli xil muammolar va ziddiyatlarga olib kelmaydi. Aksincha xato tushunchalar, nafrat, ziddiyat va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bunday ma'lumotlarning keng tarqalishi esa fuqarolarning ishonchini kamaytirib, axborot manbalarining ishonchliligini shubha ostiga qo'yadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda soxta ma'lumotlarni aniqlash va bloklash uchun maxsus programma va texnologiyalardan foydalanish kerak. Masalan, Xitoyda tik tokdan foydalangan yoshlarga belgilangan vaqtda tarmoqning bloklanishi. Bu xolat ham yosh avlodning texnologiyalarga qaramlik darajasini pasaytiradi, hamda ko'plab salbiy muammolarga turtki bo'ladi. Qolaversa, kontentni tahlil qilish vositalari va ma'lumotlarning haqiqiyligini tekshiruvchi dasturlar feyk ma'lumotlarni tarqalishidan oldin aniqlash va uni to'xtatish imkonini beradi. Faktlarni tekshirishga ixtisoslashgan mustaqil platforma va tashkilotlar rivojlantirilsa, bunday platformalar foydalanuvchilarga tezkor va ishonchli axborot taqdim etish va yolg'on ma'lumotlarning oldini olish imkonini beradi. Ular axborot manbalarini tekshirish va baholash borasida foydalanuvchilarga yordam beradi.

OAV va onlayn platformalar axborot tarqatishda o'z vazifasini chuqur anglab yetishi kerak. Soxta ma'lumot tarqatgan manbalarga nisbatan huquqiy va moddiy choralar ko'rish lozim. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari va platformalarning ma'suliyatini oshiradi va ularni ishonchli axborot tarqatishga undaydi.

OAV va jamoat tashkilotlari tomonidan feyk yangiliklar va yolg'on ma'lumotlarning jamiyatga ta'siri va ularning oldini olish bo'yicha ma'naviy, ma'rifiy ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning axborot savodxonligi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boorish, yoshlarni yolg'on ma'lumotlarga nisbatan ehtiyot bo'lishga undaydi. Yolg'on ma'lumotlar va feyk yangiliklarning tarqalishi raqamli jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda, uni hal etish uchun kompleks yondashuv talab qilinadi. Yosh avlod ongida axborot savodxonligini oshirish, axborot manbalarining ishonchliligini ta'minlash, faktlarni tekshirish va

javobgarlikni kuchaytirish orqali raqamli muhitda to'g'ri va ishonchli axborot tarqatilishini ta'minlash mumkin.

Raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasi yetarli darajada shakllanmagan bo'lishi mumkin. Sababi dunyoda mamlakatlar, davlatlar juda ko'p. Ularning madaniyatlar o'rtasida axloqiy me'yorlar va qoidalar o'rtasida juda katta farq bor. Bu esa turli xil nizolar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Raqamli jamiyatda axloqiy tarbiyani kuchaytirish va raqamli savodxonlikni oshirish orqali axloqiy me'yorlarga rioya qilish darajasiga erishiladi. Buning uchun maktablar va oliy ta'lim muassasalarida raqamli fuqarolik, axloqshunoslik va raqamli savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar va treninglarni joriy etish lozim. Foydalanuvchilarga raqamli tizimda muloqot qilish madaniyati, axloqiy tamoyillar va kiberxavfsizlik bo'yicha ma'lumot berish kerak. Har bir jamiyat va tashkilot axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mukammal ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni ko'rishi zarur. Jumladan, yoshlarni axloqiy yetuklikka olib chiqish, ularni texnologiyalarga qarshi immunitetini oshirish uchun, ulardan foydalanishida, yosh bo'yicha kuchli parollar yaratish, ikki bosqichli autentifikatsiyani faollashtirish, shaxsiy ma'lumotlarni saqlashda ehtiyot bo'lish, kiberhujumlardan himoyalaniish uchun maxsus dasturlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Davlatlar va kompaniyalar axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qonunlar va bu bo'yicha siyosatini kuchaytirishi lozim.

Raqamli tarmoqlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilishni ta'minlash uchun foydalanuvchi yoshlarning xatti-harakati nazorat qilinishi kerak. Tarmoq egalari tomonidan platformalarni qanchadir vaqtga bloklash, filtrlash va tajavvuzkor yoki noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishini oldini olish uchun avtomatlashtirilgan algoritmlardan foydalanish mumkin.

Raqamli tarmoq foydalanuvchilari o'rtasida javobgarlikni oshirish uchun platformalarda anonimlikni kamaytirish va shaxsiy ma'lumotlarni tasdiqlash jarayonlarini kuchaytirish lozim. Bu nafaqat kiberbulling va agressiyaning oldini oladi, balki onlayn muloqotda madaniyatni va ishonchlilikni ham oshiradi. Raqamli jamiyatda axloqiy qiyofaning ahamiyatini mustahkamlash zarur. Axloqiy tarbiyani kuchaytirish va raqamli madaniyatni oshirish bilan raqamli jamiyatda xavf-xatarlarni kamaytirish mumkin. Shu bois davlat va jamiyatning yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosati va dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, raqamli jamiyatda yoshlarni axloqiy qiyofasini shakllantirish o'ta jiddiy va muhim ahamiyatga ega masaladir. Axloqiy qadriyatlarni saqlash hamda rivojlantirish orqali ijtimoiy, ta'limiy, texnologik va qonuniy choralarni birgalikda qo'llash barobarida amalga oshirish zarur. Axloqiy qiyofaning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta'minlash, yosh avlodda axloqiy tarbiyani kuchaytirish va

axborot xavfsizligini ta'minlash bilan raqamli jamiyatda yoshlar orasida turli xavf-xatarlarni kamaytirish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson J., Rainie, L. The Future of Digital Life and Well-Being. Pew Research Center. Retrieved from Pew Research. 2018.
2. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
3. Kant I. Groundwork for the Metaphysics of Morals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
4. Mill J. S. Utilitarianism. – London: Parker Son and Bourn, 1863.
5. Rawls J. A Theory of Justice. – Massachusetts: Harvard University Press, 1971.
6. Habermas J. Moral Consciousness and Communicative Action. – Cambridge: MIT Press, 1990.
7. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000.
8. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
9. Giddens A. The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. – Cambridge: Polity Press, 1984.
10. Arendt H. The Human Condition. – Chicago: University of Chicago Press, 1958.
11. Mamarasulov A. Etika va estetika. – Toshkent: Universitet, 2015.
12. Shodmonov Sh., Qodirov A. Falsafa. – Toshkent: Universitet, 2012.
13. Rasulov R. Axloq falsafasi. – Toshkent: Fan, 2004.
14. Qodirov A. Ijtimoiy falsafa asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.